IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 20 Issue 01 April 2026

O'ZBEKISTON EKSPORT GEOGARFIYASINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING AHAMIYATI

Kazakov Mansurbek Qadamboy o'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy Universiteti talabasi
Jumabayeva Kumush Botir qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti
+998883190305
mansurbekkazakov0@gmail.com

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada O'zbekiston eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Xususan, mamlakat eksportining asosiy qismi Rossiya va Xitoy bozorlariga to'g'ri kelayotgani, bu esa tashqi savdoda muayyan darajadagi qaramlikni yuzaga keltirayotgani ko'rsatib o'tiladi. Maqolada eksport yo'nalishlarini kengaytirish, yangi bozorlarga chiqish, jumladan Yevropa, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish orqali tashqi iqtisodiy xavflarni kamaytirish, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash hamda raqobatbardoshlikni oshirish masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: eksport geografiyasi, diversifikatsiya, tashqi savdo, iqtisodiy qaramlik, O'zbekiston eksporti, Rossiya bozori, Xitoy bozori, yangi bozorlar, savdo hamkorlari, iqtisodiy barqarorlik.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются актуальные вопросы диверсификации географии экспорта Узбекистана. В частности, отмечается, что основная часть экспорта страны приходится на рынки России и Китая, что формирует определённую степень зависимости во внешней торговле. В статье обосновывается экономическая значимость расширения экспортных направлений и выхода на новые рынки, включая страны Европы, Южной Азии и Ближнего Востока. Также рассматриваются вопросы снижения внешнеэкономических рисков посредством диверсификации структуры экспорта, обеспечения устойчивости национальной экономики и повышения её конкурентоспособности.

Ключевые слова: география экспорта, диверсификация, внешняя торговля, экономическая зависимость, экспорт Узбекистана, рынок России, рынок Китая, новые рынки, торговые партнёры, экономическая устойчивость.

ABSTRACT. This article analyzes the current issues of diversifying Uzbekistan's export geography. In particular, it highlights that a significant share of the country's exports is concentrated in the markets of Russia and China, which creates a certain level of dependency in foreign trade. The article substantiates the economic importance of expanding export directions and entering new markets, including Europe, South Asia, and the Middle East. It also examines ways to reduce external economic risks through export structure diversification, ensure the stability of the national economy, and enhance its competitiveness.

Keywords: export geography, diversification, foreign trade, economic dependence, Uzbekistan's exports, Russian market, Chinese market, new markets, trade partners, economic stability.

KIRISH

O'zbekiston 200 ga yaqin mamlakatga eksportni amalga oshiradi. Lekin O'zbekiston eksportida 2 ta mamlakat, Xitoy va Rossiya katta ulushga ega. O'zbekiston milliy statistika

qo‘mitasi bergan ma’lumotlarga ko‘ra 2025-yilda O‘zbekiston eksportida Xitoy va Rossiyaning birgalikdagi ulushi 201.1% ni tashkil qildi[1].

Hozirgi globallashuv va geosiyosiy beqarorlik sharoitida O‘zbekiston tashqi savdo geografiyasini diversifikatsiya qilish muhim qolaversa strategik vazifaga aylandi. Bu holatlar mamlakatlar oldida tashqi savdo siyosatini tubdan isloh etish, savdo geografiyasini diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarga kirish hamda

Xitoy va Rossiyaning tashqi savdodagi ulushini kamaytirish zaruratini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Hozirgi globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyotida xizmatlar savdosi, ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlari eksporti rivojlanmoqda. Raqamli iqtisodiyotning kengayib borishi natijasida davlatlar nafaqat an’anaviy tovar eksporti, balki yuqori qo‘shimcha qiymatga ega xizmatlar orqali ham xalqaro bozorlarda o‘z mavqeini mustahkamlashga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston uchun eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishda AKT xizmatlari eksportini oshirish muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Ekonometrika usullaridan foydalanildi hamda ilgari surilgan g‘oya empirik jihatdan asoslab berildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - O‘zbekiston eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishda AKT xizmatlari eksportining o‘rni va ta’sirini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Modelda bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida eksport geografiyasining diversifikatsiya darajasi tanlandi, mustaqil o‘zgaruvchi sifatida esa AKT xizmatlari eksporti hajmi kiritildi. Qo‘shimcha ravishda, nazorat o‘zgaruvchilari sifatida umumiy eksport hajmi, investitsiyalar, logistika infratuzilmasi rivojlanish darajasi va tashqi savdo hamkorlari soni hisobga olindi. Modelni baholashda regressiya tahlili, korrelyatsiya tahlili va statistik testlardan foydalanildi. Xususan, model parametrlarining ahamiyatliligi t-statistika orqali tekshirildi, modelning umumiy mosligi esa determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) yordamida baholandi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu mavzuda bir qancha olimlar o‘zining tadqiqot ishlarini olib brogan. Jumladan, uzoq xorij olimlaridan U.Stafford va Tomas Man merkantilizm g‘oyasini ilgari surgan. Ularning fikriga ko‘ra mamlakatning boyligi u egalik qiladigan oltin bilan o‘lchanadi. Lekin A.Smit merkantilistlarni keskin tanqid qildi. Uning fikricha mamlakatning boyligi u egalik qiladigan oltin miqdoriga emas, balki uning ishlab chiqarish imkoniyatlariga bog‘liqligini ko‘rsatib berdi. Shuning uchun har qanday mamlakatning bosh vazifasi mamlakatga ega bo‘lgan oltin miqdorini oshirish emas, balki xalqaro mehnat taqsimotida o‘ziga xos munosib o‘rin egallashdan iborat. Bu borada Shved iqtisodchilari E.Xeksher hamda B.Olin o‘z tadqiqotlarini olib borgan. Ularning takidlashicha mamlakatlarni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin. Mehnat omiliga boy mamlakatlar va Kapital omiliga boy mamlakatlar. Ularning fikriga ko‘ra Xalqaro mehnat taqsimotida Kapitalga boy mamlakatlar kapital sig‘imkorligi yuqori bo‘lgan tovarlarni yetkazib berishga, menhat omiliga boy mamlakatlar mehnat sig‘imkorligi yuqori bo‘lgan mahsulotlarni yetkazib berishga ixtisoslashadi. Ammo V.Leontyev o‘tkazish yo‘li bilan Xeksher-Olin tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaning shartlari amaliyotda qo‘llanilmasligini isbotladi. Shuningdek P. Samuelson va R.Djons “maxsus ishlab chiqarish omillari” , S.Linder “kesishuvchan talab” , B.Balassa “tarmoq ichidagi savdo” nazariyalarini ishlab chiqdi[2].

[1] O‘zbekiston milliy statistika qo‘mitasi (https://stat.uz/uz/)

[2] Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar:darslik /A.V.Vaxabov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X.Xajibakiyev (2015) 253-259-bet

Mahlliy tadqiqotchi olimlardan A.V.Vaxabov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X.Xajibakiyev “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” darsligida ushbu mavzuga to‘xtalgan. Shunningdek A.Qodirjonov va S.Tursunov

“O‘zbekiston Respublikasi eksport salohiyatining shakllanishi, rivojlanish omillari va zamonaviy tendensiyalarini” ilmiy tahlil qilgan. A.Odilov esa “hududlar eksport salohiyatini va tashqi savdo aylanmasini oshirishning ustuvorliligi” mavzusida E.Axrorov bo‘lsa “Xalqaro savdo siyosati va O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari” borasida tadqiqot olib borgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi globallashuv sharoitida mamlakatlarning tashqi savdo siyosatida eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Eksport geografiyasining torligi, ya’ni savdo oqimlarining asosan bir necha davlatlarga yo‘naltirilganligi iqtisodiy xavflarni oshiradi, tashqi bozorlar konyunkturasiga yuqori darajada bog‘liqlikni yuzaga keltiradi hamda eksport tushumlarining barqarorligini pasaytiradi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston eksport tarkibini va uning geografik yo‘nalishlarini kengaytirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonning 2025- eksporti tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakat tashqi savdosida 5 mamlakat eksportning uchdan bir qismini tashkil qilmoqda. Bunda Rossiya 12.8%, Xitoy 7.3%, Qozog‘iston 4.6%, Afg‘oniston 4.5%, Turkiya 3.4%[3]. Bu holat, bir tomondan, geografik yaqinlik, transport xarajatlarining nisbatan arzonligi va tarixiy savdo aloqalari bilan izohlanadi. Biroq, boshqa tomondan, eksportning bunday tor geografik yo‘nalishga ega bo‘lishi iqtisodiy xavflarni kuchaytiradi. Xususan, ayrim mamlakatlardagi iqtisodiy inqirozlar, siyosiy beqarorlik yoki savdo cheklovlari O‘zbekiston eksportiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli eksport geografiyasini rivojlangan davlatlar, xususan Yevropa Ittifoqi, AQSh va boshqa yirik bozorlar tomon kengaytirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur jarayonda raqamli xizmatlar eksporti muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli xizmatlarning asosiy xususiyati shundaki, ular moddiy mahsulotlardan farqli ravishda internet orqali yetkaziladi va transport-logistika infratuzilmasiga kam darajada bog‘liqdir. Bu esa ularni geografik jihatdan cheklanmagan eksport turiga aylantiradi. Natijada, raqamli xizmatlar eksporti orqali uzoq va rivojlangan bozorlarga chiqish imkoniyati sezilarli darajada kengayadi. Raqamli xizmatlarga dasturiy ta’minot ishlab chiqish, IT outsourcing, ma’lumotlarni qayta ishlash, telekommunikatsiya xizmatlari va boshqa axborot-kommunikatsiya xizmatlari kiradi. Ushbu xizmatlar ayniqsa rivojlangan davlatlarda yuqori talabga ega bo‘lib, ular yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadi. Shu bois, raqamli xizmatlar eksportining rivojlanishi mamlakat eksport tarkibini sifat jihatidan yaxshilash bilan birga, uning geografiyasini ham kengaytiradi.

Empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda IT xizmatlar eksporti jadal sur’atlarda rivojlanib, uning asosiy qismi aynan rivojlangan davlatlar bozoriga yo‘naltirilmoqda. Xususan, AQSh, Yevropa davlatlari va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar O‘zbekiston IT xizmatlari uchun asosiy eksport yo‘nalishlariga aylanib bormoqda. Bu esa raqamli xizmatlar eksportining geografik diversifikatsiyani ta’minlashdagi rolini yaqqol namoyon etadi. Bundan tashqari, raqamli xizmatlar eksporti inson kapitaliga asoslanadi. Ya’ni, ushbu sohaning rivojlanishi malakali mutaxassislar tayyorlash, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish va innovatsiyalarni

qo‘llab-quvvatlash bilan chambarchas bog‘liq. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotning barqaror va sifatli o‘sishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakatning global iqtisodiy tizimga integratsiyasini tezlashtiradi. Raqamli xizmatlar eksportining yana bir muhim afzalligi - uning yuqori darajada moslashuvchanligidir. Ya’ni, ushbu xizmatlar tezda yangi bozorlarga yo‘naltirilishi, turli mamlakatlar talabiga


[3] O’zbekiston respublikasi milliy statistika qo’mitasi:https://stat.uz/uz/

moslashtirilishi mumkin. Bu esa eksport geografiyasini kengaytirish jarayonini tezlashtiradi. An'anaviy tovar eksportida esa bunday moslashuvchanlik cheklangan bo'ladi, chunki u transport, bojxona va boshqa infratuzilma omillariga bog'liq. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli xizmatlar eksportining oshishi O'zbekiston eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat eksport tarkibini zamonaviylashtiradi, balki rivojlangan davlatlar ulushini oshirish orqali tashqi savdoning barqarorligini ta'minlaydi. O'zbekiston eksport geografiyasini kengaytirish va rivojlangan bozorlarga chiqishni ta'minlash uchun raqamli xizmatlar eksportini rivojlantirish zarur. Ushbu yo'nalishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish, IT infratuzilmasini rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali mamlakat eksport salohiyatini yanada oshirish mumkin. Raqamli xizmatlar eksportni oshirish rivojlangan mamlakatlarning O'zbekiston eksportidagi ulushini oshishiga xizmat qiladi. Bu orqali eksportdan tushadigan daromad oshadi va tashqi savdo balansi yaxshilanishiga olib keladi.

Quyidagi 1- rasmdan shuni ko'rishimiz mumkinki Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining umumiy xizmatlar eksportidagi ulushining oshishi Eksport geografiyamizda Xitoy va Rossiyaning umumiy ulushini kamayishiga sabab bo'lmoqda. 2017-2024-yillardagi ma'lumotlar orasidagi bog'liqlikni tahlil qiladigan bo'lsak bog'liqlik quyidagicha chiqadi. Mazkur ekonometrik model: y(x)=-2.08x+0.41 tahlil natijalari AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) sektorining umumiy xizmatlar tarkibidagi ulushi hamda Rossiya va Xitoyning O'zbekiston eksportidagi ulushining o'zaro bog'liqligini baholashga imkon berdi.

1-RASM. O'ZBEKISTON AKT XIZMATLARINING UMUMIY XIZMATLAR EKSPORTIDAGI ULUSHI VA XITOY VA ROSSIYANING EKSPORTDAGI ULUSHI[4]

Ushbu davr ma'lumotlari asosida olib borilgan ekonometrik tadqiqot shuni ko'rsatdiki O'zbekistonda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) sektorining rivojlanishi va uning




	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
AKT xizmatlarining umumiy xizmatlardagi ulushi	7.70%	6.70%	5.70%	5.30%	9.80%	7.70%	6.30%	8.10%	9.50%	9.40%
Xitoy va Rossiyaning eksportdagi ulushi	33%	31.20%	35.50%	28%	22.60%	27.60%	28.90%	23.60%	21.30%	20.10%

mamlakat eksport tarkibiga, xususan Rossiya va Xitoyning ulushiga ta'siri ekonometrik model

[4] O'zbekiston respublikasi milliy statistika qo'mitasi:https://stat.uz/uz/ va Jahon banki rasmiy sayti: https://data.worldbank.org/ ma'lumotlari asosida muallif tominidan tayyorlandi.

yordamida tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, korrelyatsiya koeffitsienti r=−0.78 bo‘lib, o‘zgaruvchilar o‘rtasida kuchli manfiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Bu AKT ulushi ortishi bilan Rossiya va Xitoyning eksportdagi ulushi kamayish tendensiyasini ko‘rsatadi. Student mezoni asosida aniqlanishicha, regressiya tenglamasining har ikkala parametri statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi tasdiqlandi (t_a=25.6, t_b=4.67, t_{jad}=2.447).Bu esa modelda keltirilgan omillar natijaviy ko‘rsatkichga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini bildiradi. Fisher mezoni bo‘yicha hisoblangan F=9.42 qiymat jadval qiymati (5.99) dan yuqori bo‘lib, model umumiy jihatdan statistik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, approksimatsiya xatoligi 9.05% ni tashkil etib, modelning amaliy jihatdan yetarli aniqlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari AKT sektorining rivojlanishi O‘zbekiston eksport tarkibiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini va Rossiya hamda Xitoy ulushining kamayishiga olib keluvchi barqaror tendensiya mavjudligini tasdiqlaydi. Ushbu xulosa faqat nazariy va matematik tahlillar bilan emas, balki amaliy statistik ma’lumotlar bilan ham tasdiqlanadi.

2-RASM.O’zbekiston AKT xizmatlari eksport geografiyasi (2016-2024)[5]



	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Boshqa mamlakatlar	11.29%	13.79%	18.49%	22.50%	13.30%	24.00%	21.10%	19.30%	12.70%
Shveytsariya	1.20%	2.50%	3.40%	4.60%	5.80%	13.70%	16.90%	19.30%	21.70%
Chexiya	0.01%	0.01%	0.01%	5.40%	16.50%	9.80%	11.80%	13.90%	16.00%
Koreya respublikasi	0.60%	0.80%	1.70%	1.50%	2.00%	0.70%	0.50%	0.40%	0.30%
Xitoy va Gong Kong	1.20%	0.70%	1.20%	7.40%	3.00%	2.70%	2.50%	2.50%	2.60%
Buyuk Britaniya	0.50%	0.40%	1.60%	3.20%	3.20%	12.60%	15.00%	17.30%	19.60%
Rossiya	81.90%	80.40%	67.50%	46.40%	30.50%	22.00%	14.50%	6.80%	3.80%
Germanya	0.30%	0.20%	2.90%	6.90%	21.70%	8.60%	10.90%	12.80%	14.70%
USA	3.00%	1.20%	3.20%	2.10%	4.00%	5.90%	6.80%	7.70%	8.60%

2016–2024 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlari eksporti geografiyasida sezilarli strukturaviy o‘zgarishlar kuzatilgan. Ushbu davrda eksport tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakat AKT sektori tashqi bozorlarga chiqishda bosqichma-bosqich diversifikatsiyalashuv jarayonini boshdan kechirgan. Tahlil qilinayotgan davrning dastlabki bosqichida eksportning asosiy qismi Rossiya

[5] O’zbekiston raqamli texnologiyalr vazirligi, IT-park va UNDP: ASSESSMENT OF THE IT MARKET AND DIGITAL ENTREPRENEURSHIP ENVIRONMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN, June 2022 (https://www.it-park.uz/storage/images/newsimage/%D0%98%D1%81%D1%81%D0%BB%D0%B5%D0%B4%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D0%B5%20IT%20%D1%80%D1%8B%D0%BD%D0%BA%D0%B0%20(%D0%B0%D0%BD%D0%B3)_1690525596.pdf)

Federatsiyasi hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, 2016 yilda uning ulushi 81.9 foizni tashkil etgan. Bu holat eksportning yuqori darajada konsentratsiyalashganligini, ya’ni yagona bozorga qaramlik mavjudligini anglatadi. Biroq, keyingi yillarda ushbu ko‘rsatkich keskin pasayib, 2024 yilga kelib 3.8 foizgacha qisqargan. Mazkur tendensiya O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida bozorlarni kengaytirish va risklarni kamaytirishga qaratilgan strategik siyosat olib borilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar, ayniqsa Yevropa mamlakatlari ulushining ortib borishi kuzatiladi. Xususan, Germaniya ulushi 0.3 foizdan 14.7 foizgacha, Buyuk Britaniya ulushi 0.5 foizdan 19.6 foizgacha, Shveytsariya ulushi esa 1.2 foizdan 21.7 foizgacha oshgan. Ushbu o‘sish AKT xizmatlarining sifat jihatdan yaxshilanayotganini, xalqaro standartlarga moslashayotganini hamda yuqori daromadli bozorlarga muvaffaqiyatli kirib borilayotganini anglatadi. AQSH bozorida ham ijobiy o‘sish tendensiyasi kuzatilib, uning ulushi 2016 yildagi 3.0 foizdan 2024 yilga kelib 8.6 foizga yetgan. Bu esa O‘zbekiston AKT xizmatlarining global texnologik ekotizimga integratsiyalashuvi kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Osiyo mamlakatlari, xususan Xitoy va Koreya Respublikasi ulushlari nisbatan barqaror yoki pasayuvchi xarakterga ega. Xitoy va Gonkong ulushi ayrim yillarda oshgan bo‘lsa-da, umumiy dinamikada 2–3 foiz atrofida shakllangan. Koreya Respublikasi ulushi esa asta-sekin kamayish tendensiyasini namoyon etgan. Bu esa mazkur yo‘nalishda hali to‘liq salohiyatdan foydalanilmayotganini ko‘rsatishi mumkin. “Boshqa mamlakatlar” toifasining ulushi esa butun davr davomida sezilarli darajada saqlanib qolgan bo‘lib, ayrim yillarda 20 foizdan yuqori bo‘lgan. Bu holat eksport geografiyasining kengayib borayotganini, yangi va kichik bozorlar o‘zlashtirilayotganini hamda eksport portfelining diversifikatsiyalashayotganini anglatadi.

Olib borilgan tahlillar natijalariga asoslanib, O‘zbekistonda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) eksportini oshirish va uning iqtisodiyotdagi ulushini kengaytirish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin.

Avvalo, mamlakatda raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish zarur. Yuqori tezlikdagi internet tarmog‘ini kengaytirish, zamonaviy data-markazlar va bulutli texnologiyalarni joriy etish AKT xizmatlarini eksport qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, IT-parklar va texnologik zonalar faoliyatini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, malakali kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Dasturchilar, sun’iy intellekt mutaxassislari, ma’lumotlar tahlilchilari kabi zamonaviy kasb egalari sonini oshirish orqali AKT xizmatlari eksport salohiyatini mustahkamlash mumkin. Bunda ta’lim tizimida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini chuqur o‘rgatish muhim rol o‘ynaydi. Uchinchidan, IT-kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Xususan, soliq imtiyozlari berish, startap loyihalarni moliyalashtirish va eksport qiluvchi kompaniyalarni rag‘batlantirish orqali ushbu sohada faoliyat yurituvchi subyektlar sonini ko‘paytirish mumkin. Shuningdek, xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish ham muhim hisoblanadi. O‘zbekiston IT xizmatlarini AQSH, Yevropa va Osiyo davlatlariga eksport qilishni yo‘lga qo‘yishi, outsourcing xizmatlarini rivojlantirishi hamda xalqaro freelance platformalarda faol ishtirok etishi zarur. Bu esa eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, innovatsion mahsulotlar yaratishga alohida e’tibor qaratish lozim. Faqat xizmatlar emas, balki dasturiy mahsulotlar, mobil ilovalar va SaaS platformalarni ishlab chiqish orqali yuqori qo‘shilgan qiymatga ega eksportni shakllantirish mumkin. Davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatni yanada takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlarini kengaytirish, eksportga yo‘naltirilgan IT strategiyalarni ishlab chiqish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish AKT sektorining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Umuman olganda, AKT eksportini rivojlantirish orqali O‘zbekiston eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va Rossiya hamda Xitoy kabi an’anaviy savdo hamkorlariga qaramlikni kamaytirish mumkin. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

So‘nggi yillarda mamlakatda AKT sektori jadal rivojlanib, iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. AKT xizmatlari yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lib, ularning eksporti iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Tadqiqot ishining amaliy qismida AKT eksportining rivojlanishi va uning eksport tarkibiga ta’siri ekonometrik model asosida tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko‘ra, AKT ulushi bilan Rossiya va Xitoyning O‘zbekiston eksportidagi ulushi o‘rtasida kuchli manfiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi (r = -0.78). Bu esa AKT eksportining oshishi bilan an’anaviy savdo hamkorlari ulushining kamayish tendensiyasini ko‘rsatadi. Model parametrlarining statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi Student mezoni orqali tasdiqlandi. Hisoblangan qiymatlarning jadval qiymatlaridan yuqori bo‘lishi regressiya koeffitsientlarining ishonchliligini ko‘rsatadi. Fisher mezoni bo‘yicha modelning umumiy ahamiyatli ekanligi ham aniqlanib, bu modelning to‘g‘ri tuzilganligini va natijalar ishonchli ekanligini bildiradi. Approksimatsiya xatoligining past darajada bo‘lishi esa modelning amaliy jihatdan qo‘llash mumkinligini tasdiqlaydi.

Ushbu ko‘rsatkichlar AKT eksportining asosan rivojlangan davlatlar bozoriga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Mazkur holat eksport geografiyasining sezilarli darajada diversifikatsiyalashganidan dalolat beradi. An’anaviy savdo hamkorlari ulushining kamayishi va yangi bozorlarning egallanishi iqtisodiyotning barqarorligini oshiradi hamda tashqi iqtisodiy xavflarni kamaytiradi. Xususan, Rossiya va Xitoy kabi davlatlarga bo‘lgan qaramlikning pasayishi mamlakat iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, AKT sektorining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab bermoqda. Ushbu soha orqali yuqori texnologiyali xizmatlar eksporti kengayib, iqtisodiyotning innovatsion yo‘nalishda rivojlanishi ta’minlanmoqda. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, erkin savdo va eksport faoliyatining kengayishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Eksportning oshishi YAIMning o‘sishiga, bandlik darajasining ortishiga va iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar:darslik /A.V.Vaxabov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X.Xajibakiyev (2015)
2. O‘zbekiston milliy statistika qo‘mitasi (https://stat.uz/uz/)
3. Jahon banki rasmiy sayti: https://data.worldbank.org/
4. O’zbekiston raqamli texnologiyalr vazirligi, IT-park va UNDP: ASSESSMENT OF THE IT MARKET AND DIGITAL ENTREPRENEURSHIP ENVIRONMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN, June 2022 (https://www.itpark.uz/storage/images/newsimage/%D0%98%D1%81%D1%81%D0%BB%D0%B5%D0%B4%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D0%B5%20IT%20%D1%80%D1%8B%D0%BD%D0%BA%D0%B0%20(%D0%B0%D0%BD%D0%B3)_1690525596.pdf)